

BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA MULOQOT
KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHNING LINGVISTIK
ASOSLARI

Azdamova Malika

JDPU Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi

(Boshlang‘ich ta’lim) magistranti

+998903108565

Annotatsiya. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida muloqot kompetentligini shakllantirishning lingvistik asoslari va muloqot madaniyatini boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida rivojlantirish hamda insonlar hayotida muloqot madaniyatining o‘rni kabi fikrlar haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: muloqot, xushmuomalalik, muloqot jarayoni, pedagogika, o‘quvchi.

Аннотация. Рассматриваются такие вопросы, как лингвистические основы формирования коммуникативной компетентности у младших школьников и развитие культуры общения у младших школьников, а также роль культуры общения в жизни людей.

Ключевые слова: общение, вежливость, процесс общения, педагогика, ученик.

Annotation. The linguistic foundations of the formation of the competence of communication in primary school students and thoughts such as the development of the culture of communication in primary school students and the role of the culture of communication in the life of people are mentioned.

Key words: communication, courtesy, communication process, pedagogy, reader.

Insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshi o‘rnatish uchun inson hayotida muloqot madaniyatining o‘rni beqiyos ahamiyatga ega. Muloqot tushunchasi pedagogika va psixologiyaning markaziy muammolaridan hisoblanadi. Ayniqsa boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan muloqot kompetentligini shakllantirishda o‘qituvchining vazifasi katta rol o‘ynaydi.

Muloqotni jamiyat a’zolarining o‘zaro aloqa-aratashuviziz va ularning bir-biriga ta’sirini fikr almashish (axborot berish va axborot olish)siz tasavvur qilish mumkin emas. Muloqotning tarkibiy qismida nutq, fikr almashish, axborot berish mujassamlanadi. Fikr bayon qilish jarayoni, shubhasiz, ko‘p holatlarda lisoniy imkoniyatlarning yozma yoki og‘zaki shaklda moddiy voqealanishi bilan bog‘liq.

Muloqot ko‘p hollarda verbal, ya’ni so‘z, lisoniy vositalar orqali va noverbal, so‘zsiz – noverbal (imo-ishora, har - xil belgi, nishona, ramz, simvollar) orqali axborot berish bilan bog‘liq bo‘lib, bir-biriga ta’siriga ko‘ra verbal va noverbal muloqot sifatida tasnif qilinadi [1].

Muloqot madaniyati insonlar uchun eng kerakli omildir. Shaxsning har tomonlama yetuk bo‘lib shakllanishida muloqotning ahamiyati juda katta. Misol uchun oddiy narsalarni o‘rganish uchun ham taqlid orqali o‘zaro muloqotda bo‘lish lozim.

Muloqotga o‘rgatishning turli usullaridan biri muloqot ko‘nikmasini mashg‘ulotlar tarzida shakllantirishdir. Bolani bog‘cha sharoitida tarbiyachi mashg‘ulotlar o‘tkazib muloqotga o‘rgatadi. Avval elementar o‘zini tutish, kattalarga qanday gapirish, salom berish, minnatdorchilik bildirish kabi usullar tarkib topadi. Maktab yoshi davrida va keyinchalik shaxs ijtimoiy-psixologik treninglar orqali muloqotga o‘rgatiladi. Shaxsning o‘zi bu usullarga ijobiy munosabat bildirishi, faol harakat qilishi zarur. Chunki, shaxs muloqotda bo‘lmasa faoliyat subyekti sifatida ham, individual inson sifatida ham to‘laqonli rivojiana olmaydi. A.A.Bodalyev fikricha, hatto o‘yin faoliyatida bola muloqotda bo‘ladi. Ta’lim jarayonining asosida muloqotga o‘rgatish masalasi turadi. Muloqotning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, u insonning dunyoqarashini kengaytiradi va psixikasini rivojlantiradi [2].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini nutq bilan ishslash orqali ham muloqotga o‘rgatish mumkin. Masalan, ovozni baland chiqarib she’r o‘qish, hikoyani so‘zlab berish kabi mashg‘ulotlar ham muloqotning shakllanishida yordam beradi.

Muloqot bu pedagogika va ta’lim psixologiyasing asosiy muammosi. U o‘quvchilarni o‘qitish, tarbiyalash va shaxsni rivojlantirish muammolarini hal qilishning asosiy vositasi bo‘lib xizmat qiladi va qulay psixologik iqlimni, o‘quv jarayonining maqbul holatini va pedagogik maqsadga samarali erishishga qaratilgan. Pedagogik muloqot bu pedagogik jarayonni amalga oshirishning asosiy shakli. Uning samaradorligi, avvalambor, ta’limning maqsadlari va qadriyatları va shunga muvofiq, uni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan aloqa bilan belgilanadi [3].

Muloqot kishilarning hamkorlikdagi faoliyati va ehtiyojlari asosida tug‘iladigan hamda ular o‘rtasidagi aloqa rivojlanishining ko‘p qirrali jarayoni hisobalandi.

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz mumkinki, muloqot madaniyati ta’lim-tarbiya jarayonida ham turli vaziyatlarda ham inson hayotida katta ahamiyatga ega. Jamiyatda har tomonlama rivojlangan, yetuka, komil shaxsni tarbiyalash, yosh avlodni erkin va mustaqil fikrlaydigan qilib voyaga yetkazish zarur. Demak, muloqot fikrlash bilan uzviy bog‘liq holda shakllanadi va rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Toirova G va b. Ta’limda filologiyani rivojlantirishning global masalalari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Jizzax. 2022. B. 301-302.
2. NamDU. Ijtimoiy-iqtisodiy fakulteti. Ijtimoiy-madaniy faoliyat kafedrasi. Muloqot madaniyati fanidan ma’ruzalar matni. Namangan. 2013. B. 10
3. muegn.ru <https://muean.ru>